

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI
NAMANGAN TO'QIMACHILIK SANOATI INSTITUTI**

“TASDIQLAYMAN”

Namangan to‘qimachilik sanoati
instituti rektori

Q.M. Xoliqov
2024 yil “ ”

CHARM VA MO‘YNA KORXONALARINI LOYIHALASH

FANINING O‘OUV DASTURI

Bilim sohasi:	700 000	Muhandislik ishlov berish va qurilish
Ta’lim sohasi:	720 000	Ishlab chiqarish va ishlov berish
Ta’lim yo‘nalishi:	60721200	Yengil sanoat buyumlari konstruktsiyasini ishlash va texnologiyasi (charm va mo‘yna texnologiyasi)

Fan/ modul kodi CHMKL1806	O‘quv yili 2024-2025	Semestr 8	Kreditlar 6(6)
Fan /modul turi Majburiy		Ta’lim tili O‘zbek	
1	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)
	Charm va mo‘yna korxonalarini loyihalash	90	90
2.			Jami yuklama (soat) 180
I. Fanni mazmuni: Fanni oqitishdan maqsad – talabalarga charm va mo‘yna ishlab chiqarish korxonalari va ularning yordamchi sexlarini, quvvatini, kimyoviy moddalar, yordamchi sexlarini hisoblash va unumli foydalanish masalalarini yechish uslublariga o‘rgatishdir. Fanning vazifasi talabalarda charm va mo‘yna korxonalarini loyihalashda tayyorlov sexlari, xom ashyoni qabul qilish tartibi, oshlash sexi, jarayonlarni mexanizatsiyasi va avtomatizatsiyasi, pardozlash sexlari, eritmalar bilan ishlov berish sexlarini loyihalash va qayta jihozlash jarayonlari, charm va mo‘yna sanoatida ekologik muammolari haqidagi bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish.			
II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari) II.I Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: <ul style="list-style-type: none"> 1-mavzu. Charm, mo‘yna korxonalarini loyihalash yo‘llari.* Loyihalash haqida umumiyligi ma’lumot. Korxona loyihasi tarkibi. Charm va mo‘yna korxonalarini loyihalash yo‘llari. Korxonani ishlab chiqarish assortimenti. 2-mavzu. Loyihalashning asosiy yo‘nalishlari. Korxonani ixtisoslashtirilishi. Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish va mexanizatsiyalash. Asosiy rejani tuzish. Sexlar joylashishini aniqlash. 3-mavzu. Charm va mo‘yna ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish. Texnologik maqsadlarda suvdan foydalanishning yopiq tsiklini tashkil etish. Tugatilgan ilmiy tadqiqot ishlaridan keng foydalanish. Loyihaning grafik qismini ishlab chiqish qoidalari. 			

4-mavzu. Charm va mo‘yna korxonalarini joylashtirish.**

Charm va mo‘yna korxonalarini territorial va geografik joylashtirish. Korxonani joylashtirishning muhim shartlari. Korxonani joylashda kommunikatsiya tizimlarini o‘rni.

5-mavzu. Charm va mo‘yna korxonalarining tayyor mahsulotlarini tanlash.

Tayyor charm va mo‘yna assortimentlari. Tayyor mahsulot tavsifi. Tayyor mahsulot sifati. Ishlab chiqariladigan mahsulotning o‘rtacha kimyoviy tarkibini aniqlash.

6-mavzu. Charm va mo‘yna korxonalari uchun xomashyo tanlash.**

Xomashyo tanlash va uning tavsifi. Mahsulot navi. Mahsulot navini hisoblash. Teri turlari va ularni nuqsonlarini aniqlash.

7-mavzu. Charm va mo‘yna korxonalarining tayyor mahsulotlari va xomashyo tanlashni asoslash.

Ishlab chiqarish uslubini tanlash va asoslash. Talab etiladigan xomashyo sarfini hisoblash. Tanlangan xomashyoni korxona assortimentiga bog‘liqligi.

8-mavzu. Jihozlarni tanlash va asoslash.

Charm va mo‘yna ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari. Korxona uchun texnologik jarayonga mos zamonaviy jihozlar tanlash.

9-mavzu. Charm tayyorlash texnologik jarayonlarni loyihalash.*

Kimyoviy materiallar sarfini hisoblash. Texnologik jarayonlarni nazorat qilish. Talab etiladigan suv sarfini hisoblash. Talab etiladigan issiqlik va elektr energiyasi sarfini hisoblash.

10-mavzu. Yordamchi sexlar va ularning qurilmalari.**

Markazlashgan ishchi eritmalarini tayyorlash. Korxonadagi yordamchi sexlarni joylashtirishni loyihalash.

11-mavzu. Yordamchi shaxobchalarni loyihalashning o‘zga xosligi va qo‘llaniladigan jihozlar.**

Yordamchi shaxobchalarda qo‘llaniladigan jihozlar. Yordamchi sexlarda qo‘llaniladigan jihozlarni joylash kompanovkasini ishlab chiqish.

12-mavzu. Chiqindilarni qayta ishlash tsexlari.

Chiqindilar tasnifi. Mezdrani qayta ishlash. Junni qayta ishlash. Ikkilamchi mahsulot ishlab chiqarishni tashkil qilish va uni korxona iqtisodiga ta’siri.

13-mavzu. Yordamchi jarayonlarni mexanizatsiyalash vositalari.

Yordamchi ishlab chiqarish jarayonlarida qo‘llaniladigan mexanizmlar. Xomashyo va yarim mahsulotni suyuqlikda ishlov berishda yuklash va tushurish apparatlarini mexanizatsiyalash.

14-mavzu. Charm va mo‘yna korxonalarining qurilishi.

Qurilish maydonini tanlash va bosh rejani ishlab chiqish. Asosiy va yordamchi binolarni joylash va har bir sexni umumiy kompanovkasini ishlab chiqish.

15-mavzu. Charm ishlab chiqarish korxonalari kanalizatsiya va oqava suvlarni tozalash.*

Suv ta’minalash inshootlari. Kanalizatsiya. Oqava suvlar tarkibi va ularni

tozalash.

III. Amaliy mashg‘ulotlari bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg‘ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Charm sanoatini ivitish-kullash sexini rekonstruksiya qilish.
2. Charm sanoatining oshlash sexini rekonstruksiya qilish.
3. Charm sanoatining pardozlash sexini rekonstruksiya qilish.
4. Qo‘y-po‘stin sanoati tayyorlov sexini rekonstruksiya qilish.**
5. Qo‘y-po‘stin sanoati oshlash va pardozlash sexlarini rekonstruksiya qilish.**
6. Qorako‘1 terilariga ishlov beruvchi mo‘yna korxonasini achitish, oshlash va pardozlash sexlarini rekonstrusiya qilish.**
7. Charm va mo‘yna sanoati korxonalarini loyihalash uchun kerakli jihozlar miqdorini hisoblash.
8. Charm va mo‘yna sanoati korxonalarida texnologik ehtiyojlar uchun sarf bo‘ladigan kimyoviy materiallar va suv sarfini hisoblash.
9. Texnologik ehtiyojlar uchun sarf bo‘ladigan issiqlik miqdorini va elektr energiyasi sarfini hisoblash.
10. Yordamchi obyektlarni loyihalash, texnik qayta jihozlash va rekonstruksiyalash.**

Amaliy mashg‘ulotlari multimediya qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o‘qituvchi tomonidan o‘tkazilishi zarur. Mashg‘ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o‘tilishi, mos ravishda munosib pedagog va axborot texnologiyalar qo‘llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Texnologik jarayonlar va xomashyo, yarim hamda tayyor mahsulot sifatini nazorat etish.
2. Charm va mo‘yna korxonalarining tayyor mahsulotlarini tanlash.
3. Yordamchi shaxobchalarni loyihalashning o‘ziga xosligi va qo‘llaniladigan jihozlar.
4. Chiqindilarni qayta ishlash sexlari.
5. Suv ta’moti, kanalizatsiya va oqava suvlarni tozalash.**
6. Charm sanoatini ivitish-kullash sexini rekonstruksiya qilish bo‘yicha masalalar yechish.**
7. Charm sanoatining oshlash sexini rekonstruksiya qilish bo‘yicha masalalar yechish.**
8. Charm sanoatining pardozlash sexini rekonstruksiya qilish bo‘yicha masalalar yechish.**
9. Qo‘y-po‘stin sanoati tayyorlov sexini rekonstruksiya qilish bo‘yicha masalalar yechish.**
10. Qo‘y-po‘stin sanoati oshlash va pardozlash sexlarini rekonstruksiya qilish bo‘yicha masalalar yechish.**
11. Qorako‘1 terilariga ishlov beruvchi mo‘yna korxonasini achitish, oshlash va

- pardozlash sexlarini rekonstrusiya qilish bo'yicha masalalar yechish.**
12. Charm va mo'yna sanoati korxonalarini loyihalash uchun kerakli jihozlar miqdorini hisoblash bo'yicha masalalar yechish.
 13. Charm va mo'yna sanoati korxonalarida texnologik ehtiyojlar uchun sarf bo'ladigan kimyoviy materiallar va suv sarfini hisoblash bo'yicha masalalar yechish.
 14. Texnologik ehtiyojlar uchun sarf bo'ladigan issiqlik miqdorini va elektr energiyasi sarfini hisoblash bo'yicha masalalar yechish.
 15. Yordamchi obyektlarni loyihalash, texnik qayta jihozlash va rekonstruksiyalash bo'yicha masalalar yechish.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan amaliy tajribalar o'tkazish, sinov natijalarini tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

*Izox: * Ege University, 915 QS World University Rankings, 915 o'rinn.*

*** Namangan shahar "Yuksalish charm sanoat servis" MCHJ va Namangan shahar "Gold Leather Export Import" MCHJ korxonalari tavsiyasi asosida olingan.*

Fan bo'yicha kurs loyihasi.

Kurs loyihasi fan mavzulariga taalluqli masalalar yuzasidan talabalarga yakka tartibda tegishli topshiriq shaklida beriladi. Kurs loyihasining hajmi, rasmiylashtirish shakli, baholash mezonlari ishchi fan dasturida va tegishli qafedra tomonidan belgilanadi. Kurs loyihasini bajarish talabalarda fanga oid bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qilishi kerak.

Kurs loyihasi uchun tahminiy mavzular:

- charmni qayta ishlash korxonalaridagi ivitish-kullash sexlarini hisoblash va loyihalash.
- charmni qayta ishlash korxonalaridagi oshlash sexlarini hisoblash va loyihalash.
- charmni qayta ishlash korxonalaridagi pardozlash sexlarini hisoblash va loyihalash.
- mo'ynani qayta ishlash korxonalaridagi oshlash sexlarini hisoblash va loyihalash.
- mo'ynani qayta ishlash korxonalaridagi pardozlash sexlarini hisoblash va loyihalash.
- qo'y-po'stin sanoati tayyorlov sexini hisoblash va loyihalash.
- qo'y-po'stin sanoati oshlash va pardozlash tsexlarini hisoblash va loyihalash.
- qorako'l terilariga ishlov beruvchi mo'yna korxonasini achitish, oshlash va pardozlash sexlarini hisoblash va loyihalash.
- charm va mo'yna sanoati korxonalarini loyihalash uchun kerakli jihozlar miqdorini hisoblash.
- charm va mo'yna sanoati korxonalarida texnologik ehtiyojlar uchun sarf bo'ladigan kimyoviy materiallar va suv sarfini hisoblash.
- texnologik ehtiyojlar uchun sarf bo'ladigan issiqlik miqdorini va elektr energiyasi sarfini hisoblash.

3	<p align="center">V. Ta’lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari</p> <p>Talaba bilishi kerak:</p> <ul style="list-style-type: none"> ▪ tayyorlov sexlari, xomashyoni qabul qilish tartibi, oshlash sexi, jarayonlar mexanizatsiyasi va avtomatizatsiyasi, pardozlash sexlari, eritmalar bilan ishlov berish sexlarini loyihalash va qayta jihozlash jarayonlari, charm va mo’yna sanoatida ekologik muammolari to‘g‘risida <i>tasavvurga ega bo‘lishi</i>; ▪ xomashyoga birlamchi ishlov berish sexlarining tavsifini, dastlabki ishlov berishda qo‘llaniladigan kimyoviy moddalarni, jihozlar va asbob- uskunalarini, oshlash jarayonlarini; qo‘llaniladigan mashina va apparatlarini, ishlatiladigan kimyoviy moddalarni, pardozlash jarayonlarini, qo‘llaniladigan mashina va apparatlarini, oqava suvlarini tozalash qurilmalarini <i>bilishi va ulardan foydalana olishi</i>; ▪ xomashyoga dastlabki ishlov berish jarayonlarini mexanizatsiyalash va avtomatizatsiyalashtirish va ishlab chiqarishda qo‘llash, yangi kimyoviy moddalar va mashina hamda apparatlarni qo‘llash, qayta jihozlash va loyihalash <i>ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak</i>;
4	VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari
	<ul style="list-style-type: none"> - ma’ruzalar; - amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari; - interfaol keys-stadilar; - kichik guruhlarda ishslash; - taqdimotlar qilish; - jamoa bo‘lib ishslash; - vedio materiyallar tayyorlash; - individual ishslash; - blokcheyn texnologiyasi; - sun’iy intellekt; - bulutli (cloud); - teachery; - loom.com.
5	VII. Kreditlarni olish uchun talablar
	<p>Joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ishni muvaffaqiyatli topshirish.</p>
6	Asosiy adabiyotlar
	<ol style="list-style-type: none"> 1. M.B. Shamsiyeva. Charm va mo’yna korxonalarni loyihalash. Darslik. -T.: “OMAD NISHONA NUR BIZNES”, 2023, -166 bet. 2. T.J.Qodirov, A.Yu.Toshev, N.A.Sodiqov. Charm va mo’yna korxonalari jihozlari. TTYSI. 2022, -300 bet. <p>Qo‘srimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 3. С.С.Мақсудов Чарм, мўйна кимёси ва технологияси. Дарслик. -Т.: Турон-икъбол, 2004. -127 бет. 4. А.Г.Бурмистров. Машины и аппараты производства кожи и меха. -М.: Учебник. Изд. КолосС, 2006, -194 bet.

	<p>5. Dok. Dr. Yalcin Dikmelik. "Deri Teknolojisi". Darslik Hurriyet Matbaasi 5501 Sk. No. 6, Kat Tuna Mahallesi Camdibi / IZMIR www.hurriyetmatbaa.com</p> <p>Axborot manbaalari</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. http://ziyonet.uz 2. https://www.northampton.ac.uk/courses/leather-technology-bsc-hons/; 3. https://deri.ege.edu.tr/eng-4518/history.html. 4. https://esstu.bookonlime.ru/reader/book/2014102320042977335400001682
7	<p>Namangan to‘qimachilik sanoati instituti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.</p>
8	<p>Fan / modul uchun mas’ul:</p> <p>F.M.Dadaboyev. -Namangan to‘qimachilik sanoati instituti Yengil sanoat mahsulotlarini konstruksiyalash va texnologiyasi kafedrasi katta o‘qituvchisi, PhD.</p> <p>A.O.Xomidjonov. -Namangan to‘qimachilik sanoati instituti Yengil sanoat mahsulotlarini konstruksiyalash va texnologiyasi kafedrasi dotsenti, PhD.</p>
9	<p>Taqrizchilar:</p> <p>A.A.Xojoyev -Namangan to‘qimachilik sanoati instituti Yengil sanoati mahsulotlarini konstruksiyalash va texnologiyasi kafedrasi professori v.b.</p> <p>X.Qutfiddinov -“Gold Leather Export Import” MChJ direktori.**</p> <p>B.Qurbanov -“Yuksalish charm sanoat servis” MCHJ direktori.**</p>